



DIN NIQOBIDAGI EKSTREMIZM VA TERRORIZM-JAMIYAT BARQARORLIGIGA TAHDIDI

Qudratullayeva Ehtiromxon

*O'zDSMIFMF "Xalq ijodiyoti" Professional:
ta'lim cholg'u ijrochiligi 3- bosqich talabasi*

Kalit so'zlar: Diniy ekstremizm, terrorizm, islom dini, mafkuraviy tahdid, ISHID, Hizbut-tahrir.

Annotatsiya: Dunyo ahlini bir necha yillardan buyon og'riqli nuqtasiga aylangan va islom olami nomiga dog' tushirayotgan terroristik tashkilotlar haqida, ular qanday paydo bo'lgan?

XXI- asr texnologiyalar asri bu hech kimga sir emas. Bugungi kunda istalgan ma'lumotni bir necha soniyalar ichida topish va undan foydalanish mumkin. Lekin bir yomon tomoni bu o'rgimchak to'riga filtr o'rnatilmagan. U har qanday ma'lumotni topib beradi. G'arazli kimsalar tarqatayotgan ma'lumotlarni ham. Ular ijtimoiy tarmoqlarda o'zlariga "Allohning quli", "Allohning qilichi", "Ummu falona", va shu kabi jarangdor nomlar qo'yib sodda insonlarni o'z domiga tortishmoqda. Bugungi kunda din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Manbalarda keltirilishicha diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Terrorizm so'zi birinchi marta 1793-1794-yillarda Fransiya inqilobi davrida paydo bo'lgan. O'sha davrda bu so'z ijobiy ma'noda ishlatilgan va hukmdorlar tomonidan xalqqa nisbatan zulm ko'payib ketganda unga qarshi kurash vositasi bo'lib qo'llanilgan. Shunday bo'lsalarda ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmaganini aytib o'tish lozim. Hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global harakterga ega bo'lib dunyoning barcha mamlakatlarida va mintaqalarida birdek xavf solib kelmoqda. Bu oqimga tez aldanib qoluvchilar asosan yoshlarni tashkil etmoqda. Yoshlarimizning turli oqimlar domiga tushib qolishlarining asosiy sababi- bu **JAHOLATDIR**. Xo'sh, jaholatning o'zi nima? U qanday ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda jaholat turli ko'rinishlarda paydo bo'lmoqda. Masalan, terrorchi tashkilotlar islom dinidagi "HIJRAT", "JIHOD" kabi atamalardan o'z g'araz maqsadlarida foydalanib kelmoqdalar. HIJRAT so'zi aslida payg'ambar Muhammad(s.a.v) boshchiliklardagi



bir guruh musulmonlarning dushmanlar tazyiqidan jonlarini saqlash maqsadida Makkadan Madinaga ko'chib o'tishlariga aytilgan. Aqidaparastlar esa, bu so'zlardan ya'ni hijratlardan yoshlarni avrash, ularning islom diyori bo'lgan, azon aytiladigan, juma va hayit namozlari o'qitiladigan, umuman qilib aytganda islomning besh arkonlari emin-erkin ado qilinib, musulmonchilikka hech qanday tazyiq bo'lmagan, fuqarolar tinchlik-xotirjamlikda hayot kechirayotgan Vatanni tark etishlari uchun olib borilayotgan targ'ibotlaridan foydalanmoqdalar. Vaholanki, o'z yurtini tashlab, o'zga yurtlarda sarson-sargardon yurish, manqurt shaxslar bilan birlashib, ularning g'arazli niyatlariga sherik bo'lib, kindik qoni to'kilgan yurtiga qarshi qurol ko'tarish islom ta'limotiga zid ishdir. Insonlarni tinch va osoyishta diyordan din nomidan qotilliklar oshkora qilinayotgan fitna makonlariga chorlashdek qabih ish hech qachon HIJRAT bo'la olmaydi. Islom dinimiz vatanga xiyonat, qotillik, buzg'unchilik, o'zini o'zi o'ldirish, o'zgalarga zulm qilish, ota-onaga oq bo'lish kabilardan qaytaradi. JIHOD- bu o'z dinini, vatanini, oilasini, obro'sini va mol-mulkini shariat ruxsat bergan yo'llar bilan himoya qilish demakdir. Hadisda insonning o'z nafsining yomonliklariga qarshi turishi, yaxshiliklarga intilishi katta jihad ekanligi ta'kidlangan.

Din niqobidagi ekstremizm dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarda shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga tahdid solib kelmoqda. EKSTREMIZM- bu qandey oqim, bu oqimga kirib qolgan shaxs nimalardan voz kechadi?

EKSTREMIZM (lotincha- o'ta, keskin degan ma'nolarni anglatadi)- siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda harakat va qarashlarga asoslanib faoliyat yuritish. Ekstremizmning siyosiy va diniy ko'rinishlari yaqqol ajralib turadi. Zo'rlik yoki zo'rlik ishlatishga davat qilishdir. Siyosiy ekstremizm namoyondalari o'zlarining g'arazli maqsadiga erishish uchun kuch ishlatish usullaridan foydalanib, mavjud siyosiy tuzilmalarning barqaror faoliyat yuritishini buzish va yo'qotishga harakat qiladi. Bu yo'lda ekstremistlar va ekstremistik tashkilotlar "demokratiya" niqobi ostida balandparvoz shiorlar, chaqiriqlar bilan chiqib, terrorchilik va partizanlik harakatlarini qo'llab- quvvatlaydilar, qonunga rioya etmaslik, ish tashlashlar, tartibsizliklar chiqarishga urinadilar, odamlarni gijgijlaydilar, terror qilish usulidan foydalanadilar. Ekstremistik tashkilotlarning rahbarlari har qanday murosa va kelishuvni rad etadilar, o'ziga tobelarni o'z buyruq va ko'rsatmalarini ko'rko'rona bajarishga majbur etadilar. Diniy ekstremizm, avvalo, boshqa konfessiyalarga, ularning vakillariga nisbatan toqatsiz bo'ladi. Diniy tashkilotlardan dunyoviy davlatga qarshi kurashda foydalanadi. Ekstremizmning turli ko'rinishlari so'nggi



vaqtlarda dunyoning ko'p mamlakatlarida, xususan, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqasida ham o'zini namoyon eta boshladi. Ekstremistik guruhlarining bosh maqsadi xalifalik davlati tuzish shiori ostida hokimiyatni egallashdir. Hozirgi kunda ko'proq **Turkiston islom harakati, Hizbut-tahrir, Akromiyalar, Nurchilar** va **Tablig'chilar, ISHID** kabi ekstremistik va terrorchi guruhlarining faoliyati kuzatilmoqda.

Turkiston islom harakati 1996-yilda tashkil topgan bo'lib, u jahonning qator mamlakatlarida terrorchilik tashkiloti deb tan olingan. Ushbu guruh 1999-yili Toshkent shahri va viloyatida 2000-yili Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida terrorchilik harakatlarini amalga oshirgan.

Hizbut-tahrir – (Islom ozodlik partiyasi) tashkiloti 1953-yili Falastinda tuzilgan. Hizbut-tahrirning maqsadi boshqa diniy ekstremistik tashkilotlar kabi mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlab, yettinchi asrdagi xalifalik davlatini qayta tiklashdir. Tashkilot faoliyati dunyoning aksar mamlakatlarida rasman taqiqlangan.

Akromiyalar guruhi 1996-yilda Andijonda yuzaga kelgan. Uning asoschisi avval Hizbut-tahrir a'zosi bo'lgan. Akromiyalarning fojiasi shundaki, ular imon, e'tiqod, tuyg'u tushunchalarning, qalb va aql, ma'naviyat bilan ma'rifat, din va falsafaning mohiyatini o'zlarining g'arazli fikrlari doirasida talqin etadilar.

Tablig'chilar jamoasi Hindistonda yuzaga kelgan bo'lib, ilgari surayotgan g'oyalari hanafiylik mazhabiga ziddir. Barcha aqidaparast guruhlarining g'oyalari singari ular ham mutaassiblikni targ'ib qiladi.

Nurchilar tashkiloti Turkiyada yuzaga kelgan. Asl maqsadi- mavjud hokimiyatga qarshi chiquvchi mutaassib kishilarni tarbiyalashdan iborat. Nurchilik harakati saflarining asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. Bu oqimning yurtimizga kirib kelishi 1992-yildan boshlab kuzatilgan.

Iroq va Shom islom davlati (ISHID) 2013-yil aprel oyida Iroqda tashkil etilgan. Tashkilotning bosh maqsadi islom davlatini qurish bahonasida dunyo xalqlari boshiga kulfat keltirish, noqonuniy yo'llar bilan neft, gaz, arxeologik yodgorliklar hatto odam savdosi orqali boylik orttirishdan iborat. Islomiy shiorlar niqob vazifasini bajaradi halos. Ekstremistik oqim tarkibiga kirib qolgan shaxs:

- avvalo oilasi, qarindosh-urug'lari, va yaqin insonlaridan mahrum bo'ladi;
- jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini yo'qotadi, yaxshi ilm olish, yaxshi kasb egasi bo'lish va hayotda o'z o'rniga ega bo'lish imkoniyatlaridan mahrum bo'ladi;



-umri qamoqda yoki o'zga yurtlarda xor-zor va sargardonlikda o'tadi, uni ota-ona, turmush o'rtog', farzandlar sog'inchi qiynaydi, ular oldidagi insoniy majburiyatlarini bajara olmaydi.

O'ylab ko'raylik, bunday hayot tarzi, bunday azoblar kimga kerak? Kim shu hayotni tanlaydi- hech kim. Aslida bu oqimlarga yoshlarni kirib ketishi bilimsizlik, uquvsizlik, albatta ongida mafkuraviy bo'shliq yo'qligidandur. Agar insonda ham diniy ham dunyoviy bilim shakllangan bo'lsa, bunday dinni niqob qilib olgan guruhlariga ularni niyatiga, ularni jirkanch ishlariga aslo aldanib qolmaydi. Bugun shunchaki yoshlar ongida sog'lom muhitni uyg'otish sog'lom mafkura egasi qilish va ularni o'zlari mustaqil to'g'ri yo'lni tanlay oladigan darajaga yetgunlariga qadar nazorat ostida ushlab kerak. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev «Bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lib turibdi» degan edilar. Shuni aytish joizki, bu yil O'zbekiston mustaqilligining 32-yilligi «Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!» shiori ostida o'tkazildi. Bu chaqiriq biz yoshlarni shijoat bilan, teran fikr bilan, o'qish va izlanishga va ijodkorlikka yetaklaydi. Demak, bugun biz o'zimizga, yaqin insonlarimizga, atrofdagilarimizga va ayniqsa yoshlarimizga ularning kelajagiga befarq bo'lmasak, ularga Vatanga hiyonat qilmaslikni, Vatanni, ota-onani, qarindosh-urug'larni qadriga yetishni o'rgata olsak, hech qanday xatar bizga yaqinlasha olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997
2. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash- davr talabi» mavzusida anjumandagi nutqi.
4. Tosh DAUning Agranom gazetasi 767-soni.
5. Uz internet saytlari.
6. O'zbekiston Respublikasi Bandlikka va Mehnat munosabatlari vazirligi internet nashri. Elmurod Bahtiyorovich Diniy ekstremizm va Terrorizm- T.: O'zbekiston, 2015.